

LINGVISTIKA VA UNING YO'NALISHLARIDAGI AHAMIYATI

Namangan Davlat Chet tillari instituti

Lingvistika yo'nalishi magistratura talabasi

Azimova Mohinur Murodjon qiziE-mail: mohinurazimova352@gmail.com

Telefon: +998943529977

Annotatsiya: Ushbu maqolada til o'rganish va o'rgatish uchun muhim bo'lgan bo'liblardan biri lingvistika haqida ma'lumot berib o'tilgan. Lingvistikaning yo'nalishlari va ularning ahamiyati haqida ham ma'lumot berilgan. Tilshunoslik jarayoni haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Lingvistika, fonetika, fonologiya, sintaksis, morfologiya, leksikologiya, semantika, psixolingvistika, sotsiolingvistika.*

Muloqot vositasi tilning o'rganuvchi bo'limi "lingvistika" ya'ni tilshunoslik hisoblanadi. Lingvistika barcha sohalarda qaysi tilni o'rganishdan qat'i nazar o'z faol ta'siri bilan ajralib turadi. Tilshunoslik azaldan rivojlanib kelayatgan jarayonligi tufayli tarmoqlarga bo'lingan. Fonetika- tovushlar paydo bo'lishi, ularning talaffuzi, tarqalishi va eshitilishi. Fonetikaning uch tarmog'i mavjud bo'lin artikulyatsion, akustik, auditiv kabilarga bo'linadi. Fonologiya- til tovushlarining funksiyasini, fonemalar va ularning til tizimidagi vazifasi o'rganadi. Morfologiya- so'zlarning tuzulishidan, grammatikasi, shakllanishi, morfema (so'z bo'laklari) tizimini o'rganadi va tahlil etadi. Sintaksis- so'z birikmasi va gaplarning tuzilishi, grammatik jihatdan bog'lanishi va uning tartibini o'rganadi. Leksikologiya-so'z boyligi (leksika), so'zlarning ma'nolarini, sinonim, antonim, frazeologiya, neologizm va shu kabi jarayonlarni o'rganadi va tahlil etadi. Semantika- so'z, ibora, gap va matn darajalarining ma'nolarini va ularning o'zgarishlarini o'rganadi. Tarixiy tilshunoslik- tillarning rivojlanishi, ularning ildizi, o'zgarish jarayonlarini (etimologiya, til oilalari, qadimiy tillar) o'rganadi. Qiyosiy

tilshunoslik- tillarni bir-birlari bilan solishtiradi. O'xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi va tahlil etadi. Sorsiolingvistika- til va jamiyating aloqasini, ijtimoiy guruhlarining tildan foydalanishi va dialektlarini o'rganadi va tahlil etadi. Psixolingvistika- til va inson psixologiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni va tilni idrok etish eslab qolish, o'rganib amaliyotda qo'llash kabilarni o'rganadi. Kompyuter tilshunosligi- til va uni texnologiyalarda qo'llanishi, tilning texnologik qurilmalardagi ahamiyati va ishtirok etish jarayonida uning samaradorligini. Sun'iy intellektlar, matnni qayta sihlash algoritmlari va tarjima qilish nazariyalarini o'rganadi. Amaliy tilshunoslik- tilni amalda qo'llash sohalari, tarjima, lug'atlar tuzish, til o'qitish metodikasi, hujjatlar tili va shu kabi jarayonlarni o'rganib chiqadi. Lingvistika bu kabi ko'plab sohalarga tarqalishining sababi u barcha til bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning asosi bo'lib ekanligida namoyon bo'ladi. Tilshunoslik- tilning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko'rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o'rganuvchi fan Demak, tilshunoslik inson tilini o'rganadigan mustaqil fandir. Tilshunoslik termini bilan bir qatorda ilmiy adabiyotlarda **lingvistika** (<fran linguistique<lot lingua-til) termini ham qo'llanadi^[1].

Tilshunoslik fanining ahamiyati tilning fonetik-fonologik, leksik, grammatik va boshqa jihatlardan ham o'quvchilarga ma'lum bir til o'rganayotganlarga doimiy tahlil va izlanishlar tufayli ikkinchi til va chet tillarini o'rganishni osonlashtirishdan iborat. Til va uning ikkilamchi ifodalari belgilar, yozuvlar, signallar, mimika va boshqalar ham so'zlashuv jarayoni kabi xabar almashinish vazifasini bajarajadi. Tilshunoslik jarayonini har hil tushunishlar mohiatini talqini turlicha bo'lishi natijasida ilmiy maktab va oqimlar vujudga kelgan bo'lib ular tilshunoslik tarmoqlaridan farq qiladi. Ularga logisizm, naturalizm, psixologizm, sotsiologizm, strukturalizmlar kiradi. Tilshunoslik rivojiga uning bo'limlari va oqimlari hamda tilshunoslikning maktablari yuksalishiga hissa qo'shgan olimlar ko'plab topiladi bu jarayonlarning tarixini lingvokulturologik

¹ N.Uloqov, TILSHUNOSLIK NAZARIYASI. "Barkamol fayz mediya". Toshkent.2016.-B.6.

jihatdan tahlil qilish esa uni tushunishni osonlashtiradi. Zamonaviy antropologik tilshunoslikka XIX asrning birinchi yarmida V.Gumboldt tomonidan asos solingan. Uning bir jumlani ya'ni, til- bu shunday organki, inson u yordamida o'z fikrini ifodalaydi (Die Sprache ist das bildene Organ des Gedanken) deb aytgan. Bundan tashqari u ko'p marta millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, olam haqidagi tasavvurni ko'rsatadi, millatning borligini xalqlar obrazini shakllantiradi deb aytgan. Uning ishlarini F.Baosdan boshlab, XX asr boshidan AQSHda fanda antropologik yo'nalish shakllanishiga turtki bo'lgan. Til ma'naviy va moddiy madaniyat bilan o'zaro munosabatda bo'ladi hamda ular bilan chambarchas bog'liq. Unda xalqning o'ziga xosligi, borliqni milliy his qilish, milliy madaniyat mujassam bo'ladi. " Dunyo tillarini o'rganish, -deya ta'kidlagan edi V.Gumboldt, bu shuningdek, insoniyatning hissiyotlarini va fikrlarining umumjahon tarixidir. Bu tarix barcha mamlakatlarning kishilarini va madaniy tarqaqiyotining barcha bosqichlarini tasvirlab berishi kerak, unga insonga nima tegishli bo'lsa, hammasi kirishi kerak"[2]. Tilshunoslik tarixida XX asrda Ferdinand de Sossur, Noam Chomsky, Raman Jakobsonlar kabi olimlarning hissalarini katta hisoblanadi. Ularning bari tilni turli yondashuvlar asosida o'rganib chiqdi. Tillarning strukturalistik jihatlarini Ferdinand de Sossur targ'ib etdi va tilshunoslikda yangi yo'nalishga asos soldi. U tilni o'zaro bog'langan element sifatida, tillarni bir-birlari bilan taqqoslab o'rgangan. Til va nutqni ajratib, tilni ijtimoiy jarayon deb ta'kidlaydi. Naom Chomsky generativ grammatika nazariya g'oyasini ilgari surdi. U insonlarning til o'rganish jrayonlarini "genetik" mexanizm orqali shakllanganligini, tilni inson ongi orqali shakllangan jarayon ekanligini ta'kidladi. U tildagi psixologik jarayonlarni tushunish va til o'rganish uchun ilmit metodlar ishlab chiqdi. XX asr oxirida pragmatika va diskurs o'rganganligi sababli til va ijtimoiy konteks o'rtasidagi aloqalarni chuqurroq o'rganish uchun imkon paydo bo'ldi. Roman Jakobson strukturalizm rivojiga katta hissa qo'shgan va lingvistik, psixologik, sotsiologik jihatdan

² Mamatov A.E. Zamonaviy Lingvistika "Tafakkur avlodi", Toshkent.2020.-B.32.

tilshunoslikni o'rgangan. Asosan XIX asr oxiri va hozirga qadar davom etib kelayotgan o'rganishlar tillarni o'quv guruhlarida ham chuqurroq o'rganishga imkoniyat bermoqda. Hozirgi davrda tillarni o'rganish bo'yicha yangidan- yangi g'oyalar va konseptsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ulardan biri kompyuter lingvistikasi hisoblanadi. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish^[3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.Uloqov, TILSHUNOSLIK NAZARIYASI. "Barkamol fayz mediya". Toshkent.2016.-B.6.
2. Mamatov A.E. Zamonaviy Lingvistika "Tafakkur avlodi", Toshkent.2020.-B.32.
3. Zubov A.V. Zubova I.I. Osnovi lingvisticheskoy informatsii. –Minsk:MGPIIYa, 1992.
4. Karimnazarov Shohboz. TILSHUNOSLIK FANINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. Научный информационный бюллетень, 6(1), 2025.-B.334–338. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/view/69450>
5. Azimova, M. M. Ingliz tili o'rganuvchilarda leksik boylikni oshirishda metodik yondashuvlar va tushunchalar. 2025. [DOI:10.5281/zenodo.16281963](<https://doi.org/10.5281/zenodo.16281963>)
6. Azimova, M. M. Stylistic analysis of metaphors and similes in George Orwell's Animal Farm. 2025. [DOI: 10.5281/zenodo.16282047] (<https://doi.org/10.5281/zenodo.16282047>)

³ Zubov A.V. Zubova I.I. Osnovi lingvisticheskoy informatsii. –Minsk:MGPIIYa, 1992.